


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

12/2024

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

12/2024

<https://buxdu.uz>

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2024, № 12, dekabr

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Moldova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoiri Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Norboyeva Umida Toshtemirovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Raupov Soyib Saidovich, tarix fanlari nomzodi, professor

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Mamatqulova D.Y.	Dunyoviy bilimlar va diniy e'tiqod birligiga erishishning ahamiyati	3
Rashidov R.R.	Afg'onistondagi jamoat tuzilmalari va ularning jamiyatda tutgan o'rni	7
Ro'ziqulov A.O'.	O'tgan asr so'nggi choragida Afg'onistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tahlili	12
Раупов С.С.	Шўролар ҳокимияти йилларида маҳалла институти	17
Akramova Sh.A.	Huquqiy madaniyat – harbiy xizmatchilarni jamiyatda inson huquqlarini ta'minlashdagi oliy ko'rinishi sifatida	23
Битураев У.Б.	“Zeitenwende”дан сўнг Германиянинг Марказий Осиёга нисбатан янги нигоҳи: геосиёсатдан геоиқтисодга ўтиш	29
Бозоров З.З.	Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномалари миллий ҳуқуқий тизимнинг таркибий қисми сифатида	34
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Aymatova Z.G'.	XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Markaziy Osiyo musulmonlarning haj ziyorati yo'l va yo'nalishlari	37
Boltayev A.X.	Buxoro tarixini o'rganayotgan jamiyatlar (“Qadim Buxoro” ilmiy-tadqiqot markazi misolida)	42
Jo'rayev I.I.	1950-80-yillarda O'zbekistonda qishloq xo'jaligi tarmoqlarini ixtisoslashtirilishi tarixidan	46
Nasilloev S.Sh.	O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligi fanlarida aspirantura orqali ilmiy kadrlar tayyorlashning muammo va yechimlari (1960-1970 yillar misolida)	51
Nivedita D.K.	Timur Statehood and its role in shaping Central Asian regionalism	55
Qandov B.M.	Turkistonda kadrlarni mahalliyashtirish siyosatida Turor Risqulovning roli (XX asrning 20-30-yillari)	60
Ubaydullayev O'.Q.	O'zbekistonda “Qosimovchilik” guruhi qatag'oni va uning keyingi bosqichlari	66
Utepbergenova A.K.	Qoraqalpog'iston Respublikasi teleradiokompaniyasi faoliyatining shakllanishi	71
Xolmuminov X.E.	Buxoro amirligi janubiy hududlari tarixiy demografik jarayonlarini o'rganish mavzusining nazariy-uslubiy asoslari (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari)	75

Жумаев А.А.	Бухородаги меъморий обидалар ва зиёратгоҳлардаги битикларнинг тарихий таҳлили	79
Karimov A.	Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyati yoshlarining tadbirkorlik faoliyati	83
Mamurov A.A.	Development of pottery and pottery techniques in the Timurid empire	88
Mardiyeva G.K.	O'zbekistonda 1945-1990-yillarda xotin-qizlarining o'rta maxsus va oliy ta'lim sohasidagi ulushi	92
Sulaymanova S.B.	Historical development of ancient statues and their role in human civilization	96
Tursunov A.S.	Shaharlarda urbanizatsion jarayonlar taraqqiyotida turizm sohasining tutgan o'rni (Surxondaryo viloyati misolida)	102
Tursunov J.N.	Surxondaryo viloyati aloqa ishlab chiqarish korxonasi tarixidan	106
Tursunov O'.S.	Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida ijtimoiy soha - sog'liqni saqlash tizimidagi o'zgarishlar	110
Umarov J.S.	Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Surxondaryo viloyati maktablari moddiy-texnik bazasidagi ahvol	114
Камолов И.Н.	Жемчужина дворца Бабура или принцесса Тимуридов Хонзодабегим	118
Турсунов С.Н.	Ер-сув ислохоти вақтида катағон қилинган юртдошларимиз	122
Ҳаётова Н.З.	Бухоро воҳаси ўрта аср шаҳар маданияти тарихшунослиги	127
Diyarov A.A.	Markaziy sug'dning antik va o'rta asrlar davri shishasozligini o'rganish	134
Tilavova Sh.S.	Turkiston mintaqasida oila-nikoh munosabatlarida ayollarning o'rni masalalarining yoritilishi (XIX asr oxiri – XX asr boshlari)	141
IQTISOD *** ECONOMY *** ЭКОНОМИКА		
Tursunov A.R., Axmedov A.A., Toshboboyev Sh.M.	Mahsulot sifatini baholash texnologiyasi	145

BUXORO TARIXINI O'RGANAYOTGAN JAMIYATLAR
(“Qadim Buxoro” ilmiy-tadqiqot markazi misolida)

Boltayev A'zam Xomidovich,

Buxoro davlat universiteti

Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası dotsenti

azam.boltaev.2015@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro tarixini o'rganayotgan “Qadim Buxoro” ilmiy-tadqiqot markazi haqida so'z boradi. Ushbu nodavlat notijorat tashkiloti sifatida 2016-yilda tashkil topgan bo'lib, hozirgi kunga qadar Buxoroning yoshi, mudofaa devorlari, shaharning XX asr boshiga qadar suv ta'minoti masalalarida jiddiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Bu jamiyat Buxoro shahridagi Amir Olimxon madrasasida joylashgan bo'lib, ko'plab tashkilot va Buxoroni o'rganayotgan jamiyatlar bilan hamkorlikda ish olib bormoqda. Jamiyatning Buxoro vohasi topografiyasi sohasida olib borgan tadqiqoti natijasi sifatida Buxoro vohasi va shahri maketining tayyorlanganini ko'rishimiz mumkin. Tadqiqotda shu kabi masalalar yuzasidan fikr yuritilgan va jamiyat faoliyati atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro tarixi, madrasa, tadqiqot, jamiyat, nodavlat notijorat tashkilot, “Qadim Buxoro”, madaniy va ma'naviy meros, qo'lyozma, mudofaa devori, “Afrosiyob”, “Alp er To'nga”, Devori Kampirak.

ОБЩЕСТВА, ИЗУЧАЮЩИЕ ИСТОРИЮ БУХАРЫ
(на примере научно-исследовательского центра “Древняя Бухара”)

Аннотация. В этой статье рассказывается о научно-исследовательском центре “Древняя Бухара” изучающем историю Бухары. Эта некоммерческая организация, основанная в 2016 году, по сей день проводит серьёзную исследовательскую работу по вопросам возраста Бухары, оборонительных стен, водоснабжения города до начала XX века. Это общество базируется в медресе Амира Алимхана в Бухаре и работает в сотрудничестве со многими организациями и обществами, изучающими Бухару. Результатом исследований общества в области топографии Бухарского оазиса можно считать составление макета Бухарского оазиса и города. В исследовании рассматривались аналогичные вопросы, и подробно освещалась деятельность общества.

Ключевые слова: история Бухары, медресе, исследования, общество, НПО, “Древняя Бухара”, культурное и духовное наследие, рукопись, оборонительная стена, “Афросиаб”, “Альп ер Тунга”, стена Кампирак.

SOCIETIES STUDYING THE HISTORY OF BUKHARA
(using the example of the scientific research center “Ancient Bukhara”)

Abstract. This article tells about the scientific research center “Ancient Bukhara” which studies the history of Bukhara. This non-profit organization, founded in 2016, is still conducting serious research on the age of Bukhara, defensive walls, and the city's water supply before the beginning of the 20th century. This society is based at the Emir Alimkhan Madrasah in Bukhara and works in collaboration with many organizations and societies studying Bukhara. The result of the society's research in the field of topography of the Bukhara oasis can be considered the creation of a layout of the Bukhara oasis and the city. The study examined similar issues and covered the activities of the society in detail.

Keywords: history of Bukhara, madrasah, research, society, non-profit organization, “Ancient Bukhara”, cultural and spiritual heritage, manuscript, defensive wall, “Afrosiab”, “Alp er Tunga”, Campirak wall.

Kirish. Yurtimizda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyat yuritishi uchun normativ-huquqiy bazani muntazam ravishda takomillashtirib borish maqsadida qo'shimcha chora-tadbirlar amalga tadbiriq qilinib kelinmoqda. Shuningdek, ushbu jarayonda nodavlat notijorat tashkilotlarning huquq va manfaatlarini inobatga olish, tartiblarni soddalashtirish va nodavlat notijorat tashkilotlari uchun qulayliklar va yengilliklar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Buxoro viloyati statistik boshqarmasining 2019- yildagi ma'lumotlariga ko'ra, viloyatda 711 ta nodavlat notajorat tashkiloti ro'yxatga olingan[1], Adliya boshqarmasining 2023- yildagi ma'lumotiga ko'ra, Buxoro viloyatida 577 ta nohukumat tashkilotlari ro'yxatga olingan hamda faoliyat yuritib kelmoqda[2]. Bu tashkilotlarning 20 dan ortig'i o'lka tarixi, moddiy madaniyat yodgorliklarini o'rganish va uni asrash sohasida ish olib bormoqda. Bular ichida "Qadim Buxoro" madaniy va ma'naviy merosni o'rganish ilmiy-tadqiqot markazi 2016- yildan beri faoliyati olib borayogan bo'lib, bu markaz asosan Buxoro tarixini o'rganish, uning yoshini 2500 yildan uch ming yilga olib chiqish ustida ish olib bormoqda. Bu markazning "Qadim Buxoroning kichik xalqasi" nomli tarixiy madaniy merosni qayta tiklash to'g'risidagi loyihasi 2019- yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi jamoat fondining "OAVlarda millatlararo bag'rikenglik va do'stlikni, tinchlik va barqarorlikni keng targ'ib etish" mavzusidagi 4-grant tanlovi yakuni natijalariga ko'ra Parlament komissiyasi tomonidan g'olib deb topilgan va bu loyihaga 30 million miqdorida mablag' ajratilgan.

Asosiy qism. "Qadim Buxoro" madaniy va ma'naviy merosni o'rganish ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatining asosiy maqsadi: mamlakatimiz madaniy va ma'naviy merosni o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, madaniy merosni saqlash, muhofaza qilish, qayta tiklashga ko'maklashish, ma'naviy va madaniy merosni targ'ib qilishdan iborat. Мазкур жамиятга Комил Икромов рахбарлик қилиб келмоқда[3].

Markazning asosiy vazifalari:

- Hududdagi moddiy madaniy meros obyektlarini qayta tiklash va ularni saqlashga yordamlashish;
- Tarixiy qo'lyozmalarga asoslanib yo'qotib yuborilgan osori-atiqalarimizni asl holini maketlarda yoki sharoit bo'lganda, o'zining o'rniga tiklashga ko'maklashish;

Shu maqsadda markaz tomonidan va Ismat Muhsinovning (*Ismat Muhsinov uzoq yillar Buxoro viloyatida restavrator bo'lib ishlagan*) tashabbusi hamda ko'magi bilan Buxoroning qadimgi va o'rta asrlarga tegishli mudofaa devorlari maketini tuzish ishlari boshlab yuborildi. Komil aka Ikromovning bergan ma'lumotlari ko'ra, bu jarayon bir necha yillar davomida olib borildi va markaz binosining o'rtasida shu maket tayyorlandi[4]. Unda Buxoro atrofini o'rab olgan birinchi devor, ya'ni devori Kampirak va uning ichida o'rta asrlarga oid 11 ta darvozadan iborat shahriston devori ask etgan. Ma'lumot safatida shuni aytishim kerakki, XX asr 40 yillarida ham Buxoro shahri mudofaa devori bitta ikkita darvoza buzilganini hisobga olmaganda bus-butun turgan[5]. O'tgan asrning 60 yillariga kelib mudofaa devorining to'rtidan uch qismi vayron etilgan. Jamiyat tomonidan Buxoro mudofaa devorining maketi tuzilgan va darvozalar hamda binolarning joylari aniq ko'rsatib o'tilgan.

- Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qiluvchi tashkilotlar bilan qonunda belgilangan tartibda hamkorlik qilish va ularning faoliyatiga ko'maklashish;

- Moddiy, nomoddiy, ma'naviy va madaniy merosni o'rganishda, izlab topishda tarixchi va arxeologlarga ko'maklashish.

Shu vazifadan kelib chiqib markaz YUNESKOning "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risida"gi konvensiyaga va "Butunjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish" konvensiyalariga bo'ysungan holda Buxoroning yoshi masalasiga doir tadqiqotlar olib borilmoqda. Shuningdek, Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasi bilan hamkorlikda markaz faoliyat olib bormoqda.

Markaz rahbari K.Ikromov tomonidan Buxoroning yoshi uch ming yildan kam emas degan nazariya ilgari surilmoqda. Shuningdek, o'zining tatqiqotida Avesto ma'lumotiga asoslanib, Turon haqida yoki davlatchiligimizga yetti ming yil[6: b.110-115.] degan nazariyalar ham mavjud. Agar jamiyat ilgari surayotgan fikrlar asbotlansa va amalga oshsa unda bosh qomusimizning muqaddima[7: b.3.] qismiga ham o'zgartirish kiritishga to'g'ri keladi. Buxoro yoshi uch mingdan kam emas degan fikrlarni tarixchi olim Q.Rajabovning maqolalarida ham ko'rish mumkin[8: b.207-211.].

Markaz rahbari K.Ikromov ko'p tadqiqotlarida arxeolog Ye.Nekrasova bilan hamkorlikda faoliyat olib borayotganini kuzatish mumkin. Markaz tomonidan "Afrosiyob" yoki "Alp Yer To'nga"ning qabri qayerdaligi haqidagi tadqiqotlar, Imom Buxoriy yashagan joy bo'yicha tadqiqotlar[9] va Buxoroning yer osti yo'llari to'g'risidagi tadqiqotlari albatta arxeolog va tarixchi olimlar bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda.

- Madaniy va ma'naviy merosimizni asrash bo'yicha qonunda belgilangan tartibda turli xil yig'ilish va seminar, davra suhbatlari, konferensiyalar tashkil qilish;

- Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar bilan qonunda belgilangan tartibda hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- O'tkazilgan ilmiy tadqiqot materiallarini o'rganish va ular asosida qiyosiy va boshqa tadqiqotlar o'tkazish;

HISTORY

Ilmiy tadqiqot markazi tomonidan o'z oldiga qo'ygan bu vazifalar ustida ishlar davom ettirilmoqda. Ya'ni markaz 14 kishidan iborat bo'lib, ular uch oyda bir marotaba yig'ilib seminar, davra suhbatlari amalga oshiriladi. Olib borilayotgan ishlar muhokama qilinadi va kelgusidagi ishlar rejasi tuziladi.

Ilmiy tadqiqot markazi O'zbekiston Nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assosiatsiyasi[10] Buxoro viloyati hududiy bo'linmasi a'zosi sifatida assosiatsiyaga a'zo markazlar bilan ilmiy hamkorlikda faoliyat olib bormoqda.

- O'zbekiston xalqining milliy boyligi bo'lgan foto, audio, video, yozma, arxeologik va madaniy ashyolarni saqlash, ta'mirlash va ulardan har tomonlama foydalanishga ko'maklashish;

- O'zbekiston va undan tashkaridagi xorijiy davlatlarning fondlarida saqlanayotgan tarixiy manbalarni o'rganish, tahlil qilish asnosida olingan ilmiy natijalarni butun jahon miqyosida e'tirof qilinishiga erishishga ko'maklashish. Markaz tomonidan bu yo'nalishda yaxshi ishlar amalga oshirilmoqda. Amir Olimxon madrasasining masjid qismida joylashgan markaz binosida o'lkamizning tarixiga oid suratlar(asosan Buxoro tarixiga bag'ishlangan), qo'lyozma manbalar, audio va video lavhalar va tarixiy-etnografik ashyolar (kiyim-kechaklar, sallalar, do'ppilar), harbiy aslahalar va qurol mulyajlari, numizmatik ashyolar o'rin olgan.

Markaz rahbarining ma'lumotiga ko'ra, internet tarmoqlari orqali xorijiy davlatlar kutubxonalaridan Buxoro tarixiga oid materiallar jamlangan va tadqiqot ishlarida ulardan samarali foydalanilmoqda[11].

- Ilmiy-tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, yosh olimlar hamda mutaxassislarning bilim va salohiyatini oshirish bo'yicha yig'ilishlar tashkil qilish, ularning ijodiy faoliyatini va ilmiy natijalarini nashr etish ishlariga yaqindan qo'maklashish;

- Tarixiy tajribani tadqiq qilishga yoshlarni jalb qilish orqali, kelajak avlodlarimizning ma'naviy-madaniy saviyasini oshirish.

Markaz tarixchi olimlar bilan hamkorlikda tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Tadqiqotchilar ilmiy tadqiqot ishlariga ko'maklashmoqda va ularning ilmiy ishlari uchun materiallar taqdim etilmoqda. Shuningdek, markaz tadqiqot ishlarini turli to'plamlarda, gazeta va jurnallarda hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali e'lon qilib boradi. Ta'lim muassalari va oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlik ishlari ham yo'lga qo'yilgan bo'lib, markaz binosida talabalarga sayyor darslar tashkil qilinmoqda, markaz rahbari K.Ikramov tomonidan Buxoro tarixiga oid yangi ma'lumotlar talabalarga berib borilmoqda. Markaz tarixiy binoda joylashganligi uchun bu yodgorlik turistlar uchun ham xizmat qilmoqda. "Qadim Buxoro" ilmiy-tadqiqot markazi 2016- yildan beri faoliyat yuritayotgan bo'lsa, shu qisqa davr ichida Buxoro tarixining ko'plab yo'nalishlariga tadqiqot ishlarini amalga oshirdi.

Markazning katta ishlaridan biri qadimda Buxoro atrofini o'rab turgan Devori Kanpirak va o'rta asrlarda Buxoro shahrini o'rab olgan, 11 darvozadan iborat mudofaa devorining maketini tayyorlaginidir. Markaz rahbarining ma'lumotiga ko'ra, bu g'oyani ularga uzoq yillar arxitektura tashkilotida ishlagan Ismat Muxsinov taklif etgan va o'zi ham bu ishga yordam berib kelgani va yetti yillik mashaqqatli mehnat natijasida Buxoro atrofini o'ragan mudofaa devorining maketi tayyor qilinganini qayd qiladi[12]. Maketda ko'plab tarixiy ob'ektlarning o'rni aniq ko'rsatilgan bo'lib, Buxoro shahridagi masjid, madrasalar, xovuzlarning joylashuvi haqida aniq ma'lumot olish mumkin.

Muhammad Narshaxiy ma'lumotlariga asoslanib ilmiy markaz Devori Kampirak joylashuv o'rini o'zining xaritasida aks ettirishga kirishdi va qadimgi sug'd yoki Zarafshon vohasini o'rab turgan devorning uzunligi 587 km.ni, balandligi 8-16 metrni tashkil qilishi va 16 ta darvozasi bo'lganligini qayd qiladi[13]. Maket 1:1000 masshtabda yasalgan.



1-rasm. Buxoro vohasi va shahrining maketi

Xulosa qilib aytganda, “Qadim Buxoro” madaniy va ma’naviy merosni o’rganish ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan o’lkamizdagi bir qator tarixiy yodgorliklar va inshootlar o’rganilmoqda. Bu markazning tadqiqot doirasi keng bo’lib, tarixiy o’lkashunoslik muassasasi sifatidagi faoliyati alohida tahsinga sazovor. Chunki har kim ham bugungi kunda o’lka tarixi bilan shug’ullanmaydi va bu uchun vaqt sarflamaydi. Markazning bu ishlarni vatanparvarlikka, o’z o’lkasini savishga va kelajak avlodni tarixga qiziqishini uyg’otishga undaydi, desak xato bo’lmaydi.

ADABIYOTLAR:

1. *Бухоро вилояти статистика бошқармаси маълумоти 2019 йил.*
2. <http://ngo.uz/uz/bukhoroda-butunzhaon-nodavlat-notizhorat-tashkilotlari-kuni-nishonlandi>.
3. Markaz rahbari K.Ikramovning shaxsiy arxiv ma’lumotlaridan. Ikromov Komil 1961-yilda Buxoro shahrida tug’ilgan. Ma’lumotlari oliy. Buxoro pedagogika instituti Tarix bo’limini 1984-yil tugatgan.
4. Dala tadqiqot materiallari. K.Ikramov bilan suhbat. 2024-yil may. 1-daftar.
5. Бухоро вилоят давлат архиви. 1235- жамланма, 1-рўйхат, 2-йизма жилд, 358-варақ. Болтаев, А. (2021). Бухоро атрофидаги “Канпирак девори” тарихи хусусида. центр научных публикаций (buxdu. uz), 6(6).
6. Икромов К.Х. В Авеста: О Туране или 7000 лет о нашем государственности / ЮНЕСКОнинг “Номоддий маданий меросни муҳофаза қилиш тўғрисида”ги конвенциянинг 20 йиллиги, “Бутунжаҳон маданий ва табиий меросини муҳофаза қилиш” конвенциясининг 50 йиллиги ва Бухоро давлат университетининг 93 йиллигига бағишланган “Моддий ва номоддий маданий мерос уйғунлиги” мавзусидаги халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. – Бухоро: Дурдона, 2023. – Б. 110-115.
7. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – B.3.
8. Ражабов Қ. Бухоро уч минг ёшдами? /Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача) республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Бухоро: Бухоро, 2017. – Б. 207-211.
9. Zuhra Abduhalimova. Imom Buxoriy yashagan joy bo’yicha taxminlar bor. Yangi manzilgoh bo’yicha nega qidiruv ishlari olib borilmayapti? <https://kun.uz/95923005>
10. Hozirgi kunda respublikamizda faoliyat yuritayotgan 9 mingga yaqin NNT ning 1500 ga yaqini O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasiga a’zo bo’lgan. Shundan 151 tasi Buxoro viloyatidagi nodavlat notijorat tashkilotidir. Қапанг: https://teletype.in/@buxorouz_official/PVNSRUeMd06
11. Dala tadqiqoti materiallari. K.Ikramov bilan suhbat. 2024-yil. 1-daftar.
12. Dala tadqiqoti materiallari. K.Ikramov bilan suhbat. 2024-yil. 1-daftar. “Qadim Buxoro” ilmiy-tadqiqot markazi hisoboti.
13. “Qadim Buxoro” ilmiy-tadqiqot markazi hisoboti. 1-varaq.